


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lif muvofiqlashtiruvchi kengashning 14 avgust 2025 yildagi 3-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan. IXT-131

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lif muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Endokrinologiya
O'quv dastur nomi	"Bolalar endokrinologiyasi"
O'qish turi	Ixtisoslashtirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Raximova G.N., Xaydarova R.T., Djurayeva A.SH., Axrorov K.U.
Siklning umumiy soati	288 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

					
t.f.d., professor Raximova G.N.	t.f.n., dotsent Xaydarova R.T.	t.f.n., dotsent Djurayeva A.SH.	assistant Axrorov K.U.	t.f.d., dotsent Narimova G.D.	t.f.d., dotsent Muratova Sh.T.

Maqsad	Shifoklarning professional kompetensiyalarinin takomillashtirish asosida bolalar endokrinologiyasida gipotalamo- gipofizar tizim kasalliklari, metabolik sindrom, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari, buyrak usti bezlari kasalliklari va jinsiy bezlarning kasalliklari kelib chiqish sababini va holatlarini erta aniqlash, mahoratini oshirish, samarali davolash, profilaktika tadbirlarinii amlaga oshirish bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rgatish va shakllantirishdan iborat .
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Pediatrlar, endokrinologlar va barcha tor mutaxassis pediatr-shifokorlar
Sikl vazifalari	- gipotalamo-gipofizar tizim kasalliklarining zamonaviy tashhis va standartlar bo'yicha davolash usullarini o'rganadilar, qiyosiy tashhis mezonnari, bolalik va o'smirlilik davrlarida gipotalamo- gipofizar kasalliklarining o'ziga xos kechishi bo'yicha bilimlarni shakllantiradilar; - qandli diabet tashhisini yangi klassifikatsiyalar asosida shakllantirishni, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish , kiritilgan o'zgarishlarni amaliyotga tadbiq eta olishni va yangilangan, takomillashgan davolash usullarini qo'llashni o'zlashtiradilar va zamonaviy

	<p>tibbiy yordamni ko'rsata olish va standart ko'nikmalarini shakllantirishni o'rganishadi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - qalqonsimon bez kasalliklari tashhisida yangi klassifikatsiyalarni qo'llash, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish, zamonaviy va xalqaro tavsiyalar asosida yangilangan va takomillashtirilgan tashhislash va davolash usullarini amaliyotga tadbiq eta olishni va qo'llashni o'rganadilar, qalqonsimon bez kasalliklarining bolalik va o'smirlik davrlarida o'ziga xosligi haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar; - metabolik sindrom va semizlikning xalqaro va yangilangan tasnifi asosida tashhis va zamonaviy davolash usullarini amaliyotga tadbiq etish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi va uning amaliyotda qo'llashni o'rganadilar; - buyrak usti bezi, uning kasalliklarini bolalik va o'smirlik davrilardagi o'ziga xosligi haqidagi bilimlar shakllantiriladi, xalqaro va yangilangan tasnifi asosida tashhis va zamonaviy davolash usullarini amaliyotga tadbiq etish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi va uning amaliyotda qo'llashni o'rganadilar; - jinsiy bezlarning jins va yoshga bog'liq xosliklari haqidagi bilimlar shakllantiriladi, kasalliklarni tashhislash va qiyosiy tashhislash, zamonaviy va xalqaro standart va tavsiyalarga binoan davolash usullari bo'yicha bilimlar va amaliyotga tadbiq etish
Sikl tarkibi	<p>1 modul. Bolalik va o'smirlik davri endokrinologik xizmatini qayta tashkil etish</p> <p>2 modul. Bolalik va o'smirlik davrlarida gipotalamo- gipofizar tizim kasalliklarini tashhislash va davolashning zamonaviy asoslari</p> <p>3 modul. Bolalik va o'smirlik davrlarida metabolik sindrom. Muammoga yangicha nigoh.</p> <p>4 Modul. Tireoidologiya: bugun va ertaga</p> <p>5 Modul. Diabetologiyaga pediatr – endokrinologning yangicha nigohi</p> <p>6. Modul. Bolalik va o'smirlik davrlarida buyrak usti bezi kasalliklarining muammolari</p> <p>7 Modul. Jinsiy rivojlanishi buzilgan bemorlarga tashhis qo'yish va davolash bo'yicha yangi tavsiyalar</p>
O'qish bazalari	<p>Akad. Yo. X. Turakulov nomidagi RIEIATM</p> 